

## BADIY MATNLARDA MAISHIY LEKSIKANING SEMANTIK VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI (o'zbek, nemis va rus tillari misolida)

*Alimov Tohir Egamshukurovich,  
O'zDJTU tayanch doktoranti  
E-mail: [tohir@gmx.net](mailto:tohir@gmx.net)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada rus yozuvchisi Yu.K. Vellaning asarlaridagi maishiy leksikaning o'ziga xos ravishda qo'llanilishi, muallif tomonidan qo'llanilgan uy-ro'zg'or nomlarining semantik va funksional xususiyatlari, ularning o'zbek va nemis tillaridagi tarjimasi, ekvivalenti (muqobili) mavjud bo'lмаган тақдирда ularning изоҳи қиёсиё-чог'исхтирув асосида tadqiq qilindi. Asarda taqdim etilgan ruscha maishiy leksika – Rossiyaning Sibir o'lkasida yashovchi xalqlarning turmush tarzini ifodalaydi.

**Kalit so'zlar:** nemis, rus, o'zbek tili, maishiy leksika, uy-ro'zg'or buyumlari, parda, beshik.

Maishiy leksika – maishiy, kundalik hayotda, turmush tarzidagi voqeahodisa va buyumlar va shu kabilarni nomlashda qo'llaniladi. Tadqiqotchilarining ta'kidlashicha, maishiy leksikani – yashash joyi, mebeli, xo'jalik mollari, uy-ro'zg'or buyumlari, kiyim-kechak, oziq-ovqat, ichimliklar, idish-tovoq va oshxona jihozlari, uy hayvonlari, mehnat jarayonlari va hatti-harakatlar, udum nomlari va shu kabilar tashkil etadi. [1, 493]. Kundalik hayotda qo'llanadigan bu kabi uy-ro'zg'or nomlari (stol, kasha, kvartira, bryuki, tramvay, kupitъ, pomenyatъ, koshka) neytral, keng iste'moldagi so'zlar bo'lib, aktiv lug'at tarkibidagi leksika turi hisoblanadi. Ba'zi hollarda mazkur leksika og'zaki nutqda qo'llanganda stilistik bo'yoqdorlikka uchraydi (*картошка, столовка*) [2, 48].

Maqoladagi maishiy leksikani tadqiq qilishda yozuvchi asarlaridagi uy-ro'zg'or nomlariga doir leksemalarni muttasil ravishda toplash metodi, tizimli-funksional tahlil, kontent tahlil (xabar-ma'lumotlarning mazmunini tahlil qilish)

kabi metodlardan foydalanildi. “Maktab-internatdagi bir tong” (Утро в школе-интернате) asaridagi quyidagi gapda: «*Встанешь утром, откинешь с окна занавеску, выглянешь во двор, а там на скамейке сидит синица*» [2, 14]. Muallif «шторы/тюль» so‘zlari o‘rniga, u og‘zaki nutq uchun xos bo‘lgan “занавеска” leksemasini qo‘llaydi va shu orqali u ifoda qilayotgan hayotning sodda va mushtarakligini ko‘rsatib berishga harakat qiladi[12, 164]. S.I. Ojegovning lug‘atida “занавеска” so‘zi: «*Полотнище из ткани для закрывания, отгораживания чег-н.*» deb izohlangan [5, 210].

Bu so‘z o‘zbek tiliga “parda” deb tarjima qilinadi va deraza yoki eshik tirkishini yopish uchun qo‘llanadi. Undan tashqari mazkur leksema badiiy asar sahnalashtirilganda “parda” sifatida mavjud va u asarning tarkibiy qismidagi voqelikning ifodasini anglatadi (1-parda., 2-parda v.k.). Nemis tilida «занавеска», “parda” so‘zi “*der Vorhang* ” , “*die Gardine*” shakliga ega va keyingi, ya’ni *die Gardine* leksemasi og‘zaki nutqda turg‘un so‘z birikmasi (ibora) hosil qilib, “*hinter schwedischen Gardinen*” – o‘zb. “qamoqxonada”, rus. “*в тюрьме, за решёткой*” kabi ma’nolarni ham anglatadi [11, 287].

Yu. Vellaning “Umrboqiylik haqida” – «О вечном» nomli asarida: «*Еще думал о том, что мне, оказывается, совсем не безразлично, кто для меня будет строить мою последнюю колыбель*» [4, 18] kabi ifoda mavjud. S.I. Ojegovning izohli lug‘atida «колыбель» so‘zi ikkita tushunchani anglatilishi ma'lum qilinadi, ya’ni: «*1. Род небольшой кровати, в к-рой укачивают ребенка.  
2. перен. Место возникновения чего-н.*» [5, 280].

Asar muallifi ushbu tushunchalarning ikkinchi, ko‘chma ma'nosidan foydalangan. Yozuvchi tobut va bolalar belanchagini o‘zaro qiyoslagani bejiz emas. “*Tobut*” so‘zi qo‘pol badiiy bo‘yoqqa ega, bu esa kitobxonni chalg‘itadi, shuning uchun ushbu so‘zning o‘rniga «колыбель» (o‘zb.: *beshik, belanchak*, nem.: *die Wiege*) so‘zini qo‘llash natijasida yozuvchi vaziyatni erkinlashtiradi va

shu bilan birga matndagi maishiy-madaniy va ijtimoiy o‘ziga xoslikni saqlab qoladi[14, 98]. Ta'kidlash joizki, o‘zbek tiliga «*коло́бель*» so‘zi izohli ravishda “belanchak” yoki “beshik” deb tarjima qilinadi, qiyoslang: *Beshik* – chaqaloqni belab va tebratib uxlatish uchun tol yoki tut yog‘ochidan yasalgan yorg‘a oyoqli maxsus moslama [3, 245]. Beshik qadimdan o‘zbek, tojik, turkman, qoraqalpoq, qirg‘iz va boshqa sharq xalqlari orasida keng tarqalgan. Qadimgi manbalarda, xususan "Devonu lug‘otit turk" (11-asr)da tilga olingan [3, 142].

Zamonaviy o‘zbek badiiy adabiyotida beshik so‘zi qo‘llangan quyidagicha misollarni uchratish mumkin, ya’ni: *Ziyod shunday kulimsinadi, shunday kulimsinadi – beshikdagi chaqaloqday kulimsinadi!* [7, 42]. *Beshik yo‘rg‘a gurs-gurs borib keldi. Beshik yo‘rg‘a do ‘q-do ‘q borib keldi* [8, 63].

O‘zbek badiiy adabiyotida “beshik” leksemasi toponim sifatida ham qo‘llaniladi. Masalan: *Beshikbellikdagi bitiklar salmoqli-salmoqli bo‘ldi. Boisi – bellik tekis ham enlik bo‘ldi* [7, 117]. Ta'kidlash joizki, Tog‘ay Murodning “Otamdan qolgan dalalar” asarida “beshik” so‘zi 76 marta va shularning bittasida toponim tarkibida qo‘llanilgan. Lekin uning “Ot kishnagan oqshom” va “Bu dunyoda o‘lib bo‘lmaydi” nomli asarlarida bu leksema umuman uchramaydi. Nemis tilida ushbu so‘z *die Wiege* deb tarjima qilinadi va u quyidagicha izohlanadi. *Wiege ist ein Bett für einen Säugling, in dem dieser geschaukelt werden kann*– chaqaloqni yotqizib tebratadigan moslama [6, 1323]. *Die Wiege* so‘zi ham o‘z va ko‘chma ma’nolariga ega. O‘z ma’nosida bu so‘z “bolalar belanchagi” deb tarjima qilinsa, ko‘chma ma’noda esa biror voqeа-hodisa yoki narsaning asosi, o‘zagi, ibtidosi kabi ma’nolarni anglatadi. Masalan: "Die Wiege des Universums – Ende der Dunkelheit"[10, 169].

Uzoq Sharq, Sibir o‘lkalari aholisiga xos so‘zlarning alohida bir qismini maishiy leksika tashkil qiladi. Yu.K. Vellaning asarlarida aks etgan o‘ziga xos leksikaning asosi – maishiy leksikadan iborat. Muallif asarlaridagi maishiy leksika

Uzoq Sharq, Sibir xalqlarining lisoniy, ijtimoiy, madaniy-maishiy iste'molidagi so‘zlardan farq qiladi[13, 148]. Ba'zi so‘zlar muallif tomonidan izohlanadi, matnda ushbu leksika mazkur xalqlarining madaniy-maishiy va ijtimoiy muhitini ifodalaydi.

Shunday qilib, Yu. Vellaning asarlarini tadqiq qilish natijasida quyidagi xulosalar chiqarish mumkin:

1. Muallif o‘z asalarida maishiy leksikani qo‘llaydi va ular uning ijodiga o‘ziga xoslikni mujassam qiladi. Yu. Vella Yugraning o‘troq yashovchisi, xanti va nene xalqlari madaniyatining sohibi hisoblanadi. Bu holat unga turli maishiy leksikadan foydalana olish imkoniyatini beradi. Nemis yoki o‘zbek kitobxonasi Yu. Vella asarlari bilan tanishish natijasida o‘zlariga yangi “dunyo” kashf etadilar.
2. Yu. Vella asarlarining tahlili ko‘rsatdiki, asarda qo‘llangan qiziqarli, milliy kolorit bilan sayqallangan so‘zlardan foydalanish natijasida shu yerlik aholining ruhiy-ijtimoiy va moddiy madaniyati chuqur ifodasini topgan. Zamonaviy maishiy hayotning o‘ziga xosligi, faktlari va tarixi tasvirlangan, milliy kolorit jo‘sh urib turibdi. Mazkur milliy kolorit bilan sayqallangan maishiy leksikani boshqa tillarga, jumladan, nemis va o‘zbek tillariga o‘girish uchun izohlash metodi qo‘laniladi.
3. Badiiy adabiyotlarda maishiy leksikaning qo‘llash zararuligi ma'lum, busiz esa, Yu. Vella asarlarida mavjud bo‘lgan xalq hayotining umumiyligi ifodasi, mazmuniy jihatlari, umumiyligi stilistikasi, tilning yorqinligi va muallifning o‘ziga xosligini kuzata olmaysiz.

#### **Adabiyotlar ro‘yxati:**

1. Брагина Н. Г. Память в языке и культуре. Москва: –2007.
2. Матвеева Т.В. Полный словарь лингвистических терминов. Ростов-на-Дону: Издательство ЭКСМО. – 2010.

3. O‘zbek tilining izohli lug‘ati. 1,3-jild, Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti. – 2020.
4. Вэлла Ю. «Ветерок с озера»: проза / Ю. Велла. Ханты-Мансийск: Полиграфист. –2008.
5. Ожегов С. И. Толковый словарь русского языка: 80000 слов и фразеологических выражений. / С. И. Ожегов, Н. Ю. Шведова. – Москва: Азбуковник. –1998.
6. Karl-Dieter Bünting. Deutsches Wörterbuch. Chur, Schweiz: Isis Verlag AG. – 1996.
7. Тоғай Мурод. Отамдан қолган далалар (роман). Тошкент: Шарқ. – 1994.
8. Тоғай Мурод. От кишинаган оқшом. Тошкент: Шарқ. – 2006.
9. Тоғай Мурод. Бу дунёда ўлиб бўлмайди. Тошкент: Шарқ. – 2008.
10. Розенталь Д. Э., Теленкова М. А.. Словарь-справочник лингвистических терминов /– Изд. 2-е. Москва: Просвещение. – 1976.
11. Тришин В. Н. Словарь синонимов. Москва: ASIS. – 2013.
12. Лобанов П. П. Сельскохозяйственная энциклопедия. Издание третье, переработанное - Москва: Государственное издательство сельскохозяйственной литературы. – 1951.
13. Бренто Т.Н. Музикальные инструменты Ямала: Северное издательство. – 2015
14. Дмитриев И. Контент-анализ: сущность, задачи, процедуры. Москва: Рефл-бук. –2005.